



## DAVLAT BOSHQARUVIDA SIYOSIY TEXNOLOGIYALARING ROLI VA AHAMIYATI

*Mamatqulov Sardor Baxtiyor o'g'li*

*O'zbekiston Milliy universiteti*

*Ijtimoiy fanlar fakulteti*

*Siyosatshunoslik yo'nalishi 3-kurs talabasi*

**Annotatsiya:** Siyosiy texnologiya nima, siyosiy texnologiyaning fanga kirib kelishi, ishlash mexanizmi, turlari, tarixiy shakllari, zamonaviy davlat boshqaruvida tutgan o'rni, afzallikkleri, xalqaro tajriba haqida muhim ma'lumotlarni o'rganasiz.

**Kalit so'zlar:** Siyosiy texnologiya, PR menejment, GR boshqaruv texnologiyalari, internet siyosiy texnologiyalar.

### I. Siyosiy texnologiya nima?

Bugungi kunda hukumatlar davlat boshqaruvi faoliyatini takomillashtirishda, uning samaradorligini oshirishda, muammoli (krisis) vaziyatlarni hal etishda, xalqaro munosabatlarda yoxud ichki va tashqi siyosatni operatsion va pragmatik tashkil etishda rivojlangan, demokratik davlatlar turli xil siyosiy texnologiyalardan foydalanadilar. Siyosiy texnologiyalarning vujudga kelishi hali bu nom bilan atalmasada uzoq davrga borib taqaladi. Allaqachon ibtidoiy jamiyatlarda ruhoniylar, shamanlar (turli diniy marosimlarda) shuningdek hukmdorlar olomonning fikrini shakllantirish va manipulyatsiya qilishga intilganlar. Tarafdorlarni jalb qilish usullarini birinchi marta Aristotel «Siyosat» nomli asarida bayon qilgan. Qadimgi Rimda huquqiy mexanizmlar takomillashtirilib, turli siyosiy jarayonlarni, jumladan, saylov jarayonlarini boshqarish imkonini beruvchi institutlari yaratilgan.

Siyosiy texnologiyalarning keyingi rivojlanishi yangi davrda (masalan, AQShda intensiv saylov jarayonlari tufayli) va totalitar jamiyatlarda (keng tarqalgan samarali kongnitiv manipulatsiya usullari) qabul qilindi. XX asr oxirlariga borib o'zgargan va globallashayotgan jamiyat sharoitida siyosiy texnologiyalar o'sish ro'y berdi. Agar dastlab ularning maqsadi shaxslarning o'z ongini va irodasini yo'naltirish, ongsiz motivlar va irratsional usullar bilan manipulyatsiya qilish bo'lgan bo'lsa, endi "insonning iroda erkinligi, xoqishlarini va ongini manipulatsiya qilishga asoslanardi".



“Siyosiy texnologiyalar” atamasi siyosatshunoslikda nisbatan yangi tushuncha hisoblanadi. “Texnologiya” so’zi (yunoncha techne — san’at, mahorat; logos — tushuncha, bilim) dastlab ishlab chiqarish sohasiga kirib kelgan. Bu atama insonning moddiy dunyo ob’ektlariga, ularning sifat va xususiyatlariiga o’zgartirish va (yoki) ta’sir qilish usullarini tavsiflaydi. Siyosiy texnologiyalarni anglash avvalo siyosiy jarayonlarni tushunishning maxsus rakursini shakllantiradi. O.Kont fikriga ko’ra texnologiyalar - bu "bilim" ko‘rsatmasini "harakat" ko‘rsatmasi bilan ifodalaydigan tasavvurlardir. Umuman olganda shunday, g’oyalarning siyosiy sferadagi protsessga adekvat ta’siridir. Siyosiy texnologiyalar ma’lum bir subyektning maqsad va vazifalarini aniq, makon va zamonda samarali va optimal darajada amalga oshirilishiga yo‘naltirilgan hamda ketma-ket qo’llaniluvchi jarayonlar, faoliyatning uslub va vositalari majmuini namoyon etadi. Shuni ta’kidlash kerakki, texnologik bilimlar o’z mohiyatiga ko’ra hozirgi voqe va hodisalarni tushuntirishga emas, balki belgilangan maqsadlarga erishish yo’llari va usullarini asoslash va ishlab chiqishga qaratilgan. Sub’ektlar tomonidan hokimiyat sohasida aniq, vazifalarning yechimini topishni ta’minlovchi, ma’lum bilim va ko‘nikmalar yig‘indisi sifatida siyosiy texnologiyalar ba’zi manbalarda siyosiy marketing deb ham ataladi.

Siyosiy (saylov) kompaniyalar va boshqaruvda jamoatchilik fikriga ta’sir qilish, saylovchilarni safarbar qilish va siyosiy kompaniyalarni boshqarish uchun ishlatiladigan turli vositalar, strategiyalar va amaliyotlarni o’z ichiga oladi. Siyosiy texnologiyalar so’nggi yillarda ma'lumotlar yig'ish, tahlil qilish va ijtimoiy tarmoq platformalaridagi yutuqlar tufayli muhim ahamiyatga ega bo’ldi. Ayni paytda, rus mualliflari. E.Malkin va E. Suchkov, polit-texnologiyalarga alohida tus berib "siyosiy texnologiyalarni qo'llash sohasi davlat siyosati (boshqaruvi)dan ajralib turadi" deb ta’kidlashadi.

## **II. Siyosiy texnologiyalarning turlari**

Siyosiy texnologiyalarni amalga oshirishda quyidagi funksiyalar muhim ahamiyat kasb etadi:

Ma'lumotlarni tahlil qilish va modellashtirish: Siyosiy texnologiyalar saylovchilarining xulq-atvorini tushunish, maqsadli demografiyani(qatlarni) aniqlash va saylov kampaniyasi strategiyalarini ishlab chiqish uchun asosan ma'lumotlarni tahlil qilish va modellashtirishga tayanadi.

Ijtimoiy media va siyosiy kommunikatsiyalar: Siyosiy texnologiyalar saylovchilar bilan muloqot qilish, axborot tarqatish va tarafdozlarni safarbar qilish uchun ijtimoiy media platformalari, veb-saytlar, elektron pochta kampaniyalari va mobil ilovalardan foydalanadi.



Saylovchilarni belgilash (targeting): Siyosiy kampaniyalar saylovchilarning muayyan guruhlarini aniqlash va ularga erishish uchun saylovchilarni nishonga olish usullaridan foydalanadi. Bu saylovchilarning demografiyasi, imtiyozlari, oldingi ovoz berishdagi xatti-harakatlari va ijtimoiy tarmoqlardagi faoliyati to‘g‘risidagi ma’lumotlarni to‘plash va tahlil qilishni o‘z ichiga oladi.

Siyosiy subyekt oldida turgan vazifalarning o‘ziga xos xususiyatlariga ko‘ra siyosiy texnologiyalarning quyidagi turlari ajratiladi:

- PR menejmenti;
- GR boshqaruving siyosiy texnologiyalari;
- spin doktoring;
- nutq yozuvi;
- siyosiy imidj yaratish;
- siyosiy brending;
- saylovlarni boshqarish;
- siyosiy konfliktlarni tartibga solish;
- siyosiy ittifoqlar, bitimlar tuzish;
- siyosiy mablag' yig'ish.

Siyosiy texnologiyalarning quyidagi turlari ajratiladi:

A. Strategik - aktorlarning uzoq muddatli faoliyatiga yo'naltirilgan texnologiyalar: saylovlarda g'alaba qozonish, saylov kampaniyasida ishtirok etish, siyosiy aktorning nufuzini oshirish;

B. Taktik - qisqa muddatli maqsadlarni amalga oshirishni ko‘zda tutilgan texnologiyalar: ommaviy axborot vositalari orqali tashviqot materiallarini yaratish va tarqatish, siyosiy ishtirokchilarning reytinglarini aniqlash uchun miqdoriy va sifat o'lchovlarini tashkil etish, tashviqot kampaniyalari va boshqalar.

Siyosiy texnologiyalar tarkibiga ko‘ra uch asosiy qismdan tashkil topgan:

a) o‘ziga xos bilimlar b) aniq usul va jarayon d) turli resurslar - texnik qismlar.

V.Bebik siyosiy faoliyatning aniq turlari mezonidan kelib chiqib siyosiy texnologiyalar tasnifini ko‘rsatadi. Uning tasnifiga ko‘ra texnologiyalarning asosiy turlari quidagilar:

- jamoat ongini shakllantirish;
- shaxsni ijtimoiylashtirish;
- jamoat manfaatlarini uyg'unlashtirish;



- nizolarni hal qilish.

Siyosiy sohaning turli sohalariga nisbatan, tahlil qilingan kontsepsiya siyosiy texnologiyalarning o'ziga xos to'plamlari quyidagi ko'rinishda taqdim etilgan:

- siyosiy marketing (siyosiy bozorda tovarlarni ilgari surish usullarini ifodalovchi); - siyosiy menejment (boshqaruv-tartibga solish usullarini tavsiflovchi);
- siyosiy qarorlarni qabul qilish faoliyat;
- siyosiy tasavvur (aniq, siyosiy aktyorning qiyofasini maqsadli yaratishga qaratilgan vositalari) va boshqalar.

Umuman olganda, yuqoridagi konsepsiya siyosiy marketingning o'ziga xos vositalari sifatida siyosiy texnologiyalarning mohiyatini har tomonlama aks ettiradi va bizning fikrimizcha, zamonaviy siyosatshunoslik pragmatikasiga kiritilishi mumkin.

Ishning empirik qismida so'nggi yillarda Rossiyaning siyosiy faoliyatida va MDHning boshqa mamlakatlarida tez-tez qo'llaniladigan bir nechta manipulyatsiyaviy siyosiy texnologiyalarning tavsifini taqdim etish maqsadga muvofiqliqdir.

1. Telefon texnologiyasi. Ular juda ko'p: ma'lum bir siyosatni, siyosiy tashkilotni qo'llab-quvvatlash to'g'risidagi ochiq so'rovdan tortib, kech qo'ng'iroq deb ataladigan texnologiyalarga qadar, uyqusiragan fuqarolarning telefon qo'ng'iroqlarini ko'targanlarida, raqiblarining nomidan gapirib ularni obro'sizlantirish yoki hech bo'limganda raqiblar (muayyan siyosiy adresat)ga nisbatan shubhali qarashlarni, nafratni paydo qilishga qaratilgan usullar majmuidir.

2. Nomzodni ko'rsatish bo'yicha yashirin kelishuv. Bunda kuchsiz siyosiy ta'sirga ega bo'lgan nomzod real hokimiyatga da'vo qilmaydi va saylovlarda g'alaba qozona olmaydi. Ammo, ular asosiy raqib - muxolifat da'vogarlarining hokimiyat uchun kurashlarda ovozini olib tashlash uchun ishlatiladi.

3. Mish-mishlarning tarqalishi, g'iybat. Bu eng keng tarqalgan va eng oddiy siyosiy texnologiyalardan biri bo'lib, uning mohiyati siyosatning har qanday sub'ekti, birinchi navbatda, siyosiy va jamoat arboblari haqida obro'sizlantiruvchi xususiyatga ega bo'lgan har qanday ma'lumotlarni tarqatishdir.

Shuni ta'kidlash keraki, ko'rib chiqilayotgan mavzu uchun juda muhim bo'lgan nuqta: siyosiy texnologik jarayonda asosiy ta'sir ob'ekti doimo odamlardir. Axir ular, pirovardida, asosiy harakatlantiruvchi siyosiy kuch sifatida namoyon



bo'ladi. Boshqacha qilib aytganda, ular partiyalar tuzadilar, mitinglar va ish tashlashlar o'tkazadilar, saylovlar va referendumlarda qatnashadilar, nomzodlar uchun ovoz beradilar, siyosiy va iqtisodiy tizimlarni quradilar yoki yo'q qiladilar.

Siyosiy texnologiyalar muddatiga ko'ra sporadic - birdaniga qo'llaniladigan, siklik - faoliyati davomida qayta tiklanadigan shuningdek yangilanadigan texnologiyalarga ajratiladi. Bundan tashqari siyosiy texnologiyalarning namoyon bo'lishiga ko'ra: oshkora va pinhona, miqyosiga ko'ra: global, kontinental-mintaqaviy, milliy-davlat, korporativ, lokal, shaxslararo turlarga ajraladi.

Siyosiy texnologiyalarning elektoral (saylovoldi) texnologiyalarini, lobbiiy texnologiyalarini, axborot texnologiyalarini, diplomatik yoki harbiy sohalarda muzokaralar o'tkazish tartibi va usullari texnologiyalarni shuningdek davlat boshqaruvining boshqa sohasida uchratish mumkin.

### **III. Zamonaviy siyosiy texnologiyalar: Internet texnologiyalari.**

Bugungi globallashgan jarayonlarda davlatlar yoxud siyosiy sub'yektlar o'rtasidagi o'zaro konfliktlar va urushlar o'zining tendensiyasini o'zgartirib, yangicha shakllarini namoyon etmoqda. Xususan, jang qilishning yangicha usuli sifatida qurollar o'rniqa axborotldan foydalanilmoqda. Zero, "axborot propagandası", "axborot xuruji", "yolg'on informatsiya" kabi yangi terminlar kirib keldi. Davarlarda "kim mediani nazorat qilsa, u ongni nazorat qiladi" kabi shiorlar vujudga keldi. Internet siyosiy texnologiyalarning tuzilishi va dinamikasida muhim o'zgarishlar yaratmoqda. Ijtimoiy tarmoqlarning virtual hamjamiyatlari tizimida imidj yaratish va brending texnologiyalari qo'llaniladi: ommaviylar, repostlar, yoqtirishlar, xeshteglar, memlar va vizual kontent e'tiborni jalb qilish va siyosiy ishtirokchilarni ko'proq tan olish usullari bo'lib xizmat qiladi. Sun'iy intellekt va neyron tarmoqlar sohasidagi ishlanmalardan siyosiy texnologiyalarda foydalanish katta imkoniyatlarni ochmoqda. Bunday loyihalar siyosiy modellashtirish, prognozlash va siyosiy boshqaruv sohasida yangi tendensiyalarni yaratadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Siyosiy texnologiyalar, R.Jumayev, Sh.Yovqochev;
2. Политические технологии и их применение, Александр Гутнин Татьяна Гутнина;
3. The technologies of politics, Kristin Asdal;
4. [www.polittechnolog.ru \(https://www.polittechnolog.ru/polittechnologii-top-10\).](https://www.polittechnolog.ru/polittechnologii-top-10)